



EVFEMIZMLARNING MULOQOTDA TUTGAN O'RNI

Rabiyeva Mohidil G'ayratovna

BuxDU o'qituvchisi

Davronova Gulruh Ixtiyor qizi

BuxDU 1-kurs magistranti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada evfemizmning ta'rifi unga misollar, uning xususiyatlari evfemizmning kelib chiqishi, olimlar tomonidan o'rganilishi, uning muloqotdagi o'rni va vazifasi haqida ko'roq so'z yuritiladi.*

Kalit so'zlar: *evfemizm, tabu, muloqot.*

Inson yaralibdiki doimo boshqa insonlar bilan muloqotda bo'lishga ehtiyoj sezib keladi. Bunday holatda albatta til inson muloqot aloqasining asosiy vositasi sifatida jamiyatdagi barcha o'zgarishlarga javob beradi. Albatta kishilik jamiyati vujudga kelgandan buyon o'ziga xos odob-axloq me'yorlariga ega. Ana shunday me'yorlar ichida muloqot xulqi masalasi markaziy o'rinda turadi. Muayyan millat vakillari muloqot xulqining xarakterli jihatlari xususida so'z yuritganda albatta, evfemizmga to'xtalib o'tishlari lozim hisoblanadi. Quyidagi maqolada evfemizmlarga atama sifatida ta'rif bergan holda uning xususiyatlari va muloqotdagi o'rni keltirilgan.

Evfemizm yunoncha "yeirpegsha" so'zidan olingan bo'lib, yumshoq ifodalash degan ma'noni anglatadi va so'zlovchiga aytish noqulay, noo'rin yoki qo'pol tuyulgan so'z va iboralarning sinonimi sifatida paydo bo'lgan so'zlar hisoblanadi. Evfemizm salbiy voqelikni atashdan qochish, shunday voqelikning salbiy ta'sirini yumshatish uchun xizmat qilib, kishining izzatnafsiga tegadigan, unga malol keladigan, hurmatsizlik ifodalaydigan, axloqiy me'yorlarga zid keladigan holatlarning yoki to'g'ridan-to'g'ri aytish mumkin bo'lmagan maxfiy voqeliklarning salbiy ta'sirini kamaytirish, ularni yashirish, berkitish, noxush xabarni beozorroq, yumshoqroq shaklda yetkazish, ifodalash uchun ishlatiladi. Masalan, o'ldi deyish o'rniga olamdan o'tdi, ko'z yumdi, vafot etdi; tug'di deyish o'rniga ko'zi yoridi, yengillashdi kabi iboralardan foydalanish. Yoki xodimlarning qisqarishi (ishdan bo'shatish), oltin asr (qarilik), turli xil qobiliyatlarga ega shaxs (nogiron), qurolli mojaro (urush) va hokazo.

Evfemiya muammosi ko'plab olimlarning ishlarida keng va sermahsul yoritilgan. Bunday olimlar sirasiga B.A. Larin, L.A. Bulaxovskiy, C. Silver va J. Neaman kiradi. Evfemiya hodisasini o'rganuvchi ingliz tilshunosi J. Neamanning



ishlarini o`rganar ekanmiz, til va jamiyat taraqqiyotining turli bosqichlarida evfemistik tezaruslar guruhlarining dolzarbligi turlicha bo`lgan. Evfemizmlarning eskirishida asosiy faktorlarga ma`naviy va ijtimoiy negizlarning xilma-xillashuvi kiradi. Shu bilan bir qatorda u yoki bu realiyalarning yo`qolishi, yoki aksincha yangi realiyalarning yaralishiga sabab bo`ladi. Bu esa o`z navbatida tilning lug`at boyligini oshiradi, mavjud so`zlarga yangi ma`no yuklanganligi tufayli tilda ma`nodosh so`zlarning vujudga kelishini va so`zlarning polisemantik xususiyatiga ega bo`lishini ta`minlaydi.

O`zbek tilshunosligida bu atama 1963-1964- yillarda N.Ismatullayevning „Hozirgi o`zbek tilida evfemizmlar“ nomli dissertatsiyasida o`rganib chiqildi. Tabu va evfemizm mavzusi birinchi marta 1983-yilda oliy maktab uchun tuzilgan —O`zbek tili stilistikasi nomli darslikda ancha keng yoritilgan. 1997-yilda A.Omonturdiyev evfemizm hodisasini, „uslubshunoslikning tadqiqot obyekti sifatida allaqachon o`z yechimini topishi kerak bo`lgan mavzu sifatida o`rganib chiqdi, hamda o`zbek nutqining evfemik asoslarini tadqiq qiladi.

Tilda evfemizmning qo`llanishi tabu hodisasi bilan bog`liq holda tarixiy-etnografik hodisa sifatida shakllangan. Evfemizm xalqlardagi urf-odat, madaniy saviyaning darajasi, estetik did va etnik me`yorlarning rivojlanishi bilan bog`liq. Tilning taraqqiyoti bilan uning evfemistik qatlami ham rivojlanadi. Yangicha odob-axloq, yangicha dunyoqarash me`yorlari asosida evfemizmning yangi yangi shakllari yuzaga keladi. Tilda muayyan nutq vaziyati talabi bilan vujudga kelgan evfemizm ham mavjudki, ularning ma`nosi ko`pincha matn orqali oydinlashadi. Masalan, "Ra`noni egasiga topshirmagunimizcha, — dedi Nigor oyim, — quyilmaydiganga o`xshaydi" (A. Qodiriy) jumlasida nutq odobi nuqtai nazaridan erga bermoq iborasi o`rnida egasiga topshirmoq shaklidagi evfemizm qo`llangan. Evfemizm ilmiy va rasmiy uslublarda keng qo`llanadi.

Evfemizmlarning asosiy maqsadi - xodisani kengroq yoritish uchun ushbu bo`lgan voqeaning mohiyatini hayotdan olishdir. Evfemizm ma'lum bir o`ziga xos xususiyatga vositalarning turlari bo`yicha namoyon bo`ladi. Evfemizmlarning xususiyatlari: 1) evfemizm boshqa biron bir so'z bilan bir xil kognitiv, uslubiy va ijtimoiy ta'sirlarni to'liq saqlab turadigan tarzda almashtirilishi mumkin emas; 2) so'z evfemizm vazifasini bajarishi mumkin, agar uning talqini tinglovchi tomonidan noaniq bo'lib qolsa, u uni so'zma-so'z yoki evfemistik tarzda izohlaydi; 3) evfemizm keng qo'llanilganda, u evfemizmdan ko'ra ko'proq sinonimga o'xshaydi; 4) evfemizmlarni faqat ular aytilgan kontekstda aniqlash mumkin va ularning tushunchasi bir necha omillarga, jumladan, lingvistik almashinuvda ishtirok etgan suhbatdoshlarning bilimi,



ijtimoiy amaliyoti va e'tiqodiga bog'liq. Shunday qilib, nutqni evaziga asosiy maqsad kommunikativ nizolardan qochish va tinglovchilarda kommunikativ noqulaylik hissini yaratmaslik kerak.

Xulosa qilib aytganda, evfemizmlar insonlar orasidagi muloqotning ajralmas qismi bo'lib, xushmuomalalik va yuksak saviyali muloqot madaniyatining mahsulidir. Bu o'z navbatida har bir so'zlovchini tilning go'zal va boy imkoniyatlarini ko'rsatib berishga undaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Булаховский Л.А. Введение в языкознание. – М.: Букинист, 1954 – С. 174.
2. Ismatullaev N. Evfemizmi v sovremennom uzbekskom yazike: Avtoref...kand.filol.nauk. -T., 1963. – 19 s.
3. Neaman J., Silver C. Book of Euphemisms. London, 1999. P.40.
4. Rabiyeva M. Difficulties of Differentiating Euphemisms and Dysphemisms //Pindus Journal of Culture, Literature, and ELT. – 2022. – Т. 2. – №. 5. – С. 127-132.
5. Rabiyeva, M. G. (2022). Dysphemism or Euphemism ?. Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture, 3(6), 61-65.
6. Rabiyeva M. G., Asadova Z. Methods of Using Lexical and Grammatical Transformations in the Translation of Literary Texts //Spanish Journal of Innovation and Integrity. – 2022. – Т. 5. – С. 492-494.
7. Рабиева, М. (2023). Kinodiskurs yaxlitligini ta'minlashda verbal-vizual komponentlar va ularning ahamiyati. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (*buxdu.Uz*), 29(29).
извлечено от http://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/8964
8. Исломов Д. Ш. ЎЗБЕК ТИЛИДА ИЖРО ЭТИШГА ХОС БЎЛГАН ФОНОСТИЛИСТИК ВОСИТАЛАРНИНГ ЛЕКСИК-СЕМАНТИК ХУСУСИЯТЛАРИ // "GERMANY" MODERN SCIENTIFIC RESEARCH: ACHIEVEMENTS, INNOVATIONS AND DEVELOPMENT PROSPECTS. – 2023. – Т. 9. – №. 1.
9. Исломов Д. Ш. ФРАНЦУЗ ТИЛИДА ИЖРО ЭТИШГА ХОС БЎЛГАН ФОНОСТИЛИСТИК ВОСИТАЛАРНИНГ ЛЕКСИК-СЕМАНТИК ХУСУСИЯТЛАРИ // "CANADA" INTERNATIONAL CONFERENCE ON DEVELOPMENTS IN EDUCATION, SCIENCES AND HUMANITIES. – 2023. – Т. 9. – №. 1.



10. Islomov, Dilshod. "Ўзбек тилига махсус фонетик ва фоностилистик эффект берувчи аллитерация тушунчаси ва санъати ҳақида." *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)* 16.16 (2022).

11. Islomov D. ABDULLA QODIRIYNING HAYOTI VA UNING O'ZBEK ADABIYOTIGA QO'SHGAN HISSASI //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). - 2020. - Т. 6. - №. 2.

12. Islomov D. ФОНЕМА ВА ФОНОСТИЛИСТИКА ФОНЕМА ВА ФОНОСТИЛИСТИКА ТУШУНЧАЛАРИГА ДОИР ИЛМИЙ-НАЗАРИЙ КАРАШЛАР //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). - 2020. - Т. 1. - №. 1.

13. ДШ.Исламов - ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ КОНФЛИКТЫ И ИХ РАЗРЕШЕНИЕ - NovaInfo. Ru, 2016.

14. Islomov D. SECTION: CULTURAL SCIENCE //MODERN SCIENTIFIC RESEARCH. - 2019. - С. 21